

IJORCES

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF CONFERENCE SERIES ON EDUCATION
AND SOCIAL SCIENCES.**

**PUBLISHER: ÇORUM: OGERINT -INTERNATIONAL
ORGANIZATION CENTER OF ACADEMIC RESEARCH**

IJORCES

**International journal of conference series on education
and social sciences. (Online)**

January 2026

Science Editor: **Cetin Avci**
(*Kadir Has University*)

Copyright © 2025

By Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

All rights reserved.

Available at ijorces.org

Published:

Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

ISSN 2717-7076

Bursa

Bursa, Turkey

Editorial Board Members

Prof. **Hakan Mete Dogan**. Tokat Gaziosmanpasha University, Turkey

Prof. **Afsun Sujayev**, Institute of Additive Chemistry of the ANAS, Azerbaijan

Prof. **Nadir Mammadli**, Azerbaijan Architecture and Construction University, Azerbaijan

Prof. **Munevver Sokmen**, Konya Food and Agriculture University, Turkey

ELSEVIER



SSRN
Electronic Journal
Library

Universal
Impact Factor



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI AKTIVLAR ULUSHINI KAMAYTIRISH VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH

Dusanov Doniyor Urazbaevich

Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida muammoli aktivlar ulushining shakllanishi, ularning kelib chiqish omillari hamda ularni samarali boshqarish yo'nalishlari ilmiy asosda yoritilgan. Tezisdagi respublika bank tizimi va "Hamkorbank" misolida 2025 yil statistik ma'lumotlari tahlil qilingan, muammoli kreditlar ulushi dinamikasi o'rganilgan va kamaytirishga qaratilgan yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan kredit tarixini baholash tizimini takomillashtirish, kredit byurosi ma'lumotlarini majburiy integratsiya qilish, qora ro'yxat mexanizmlarini joriy etish, kollektorlik tashkilotlari faoliyatini kengaytirish hamda banklarda alohida problem aktivlar bo'limi tashkil etish kabi amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, muammoli aktivlar, kredit portfeli, risk-menejment, likvidlilik, qarzdorlik monitoringi, kredit byurosi, qora ro'yxat, ta'minot likvidligi, aktivlar sifati.

REDUCTION OF NON-PERFORMING ASSETS IN UZBEKISTAN'S COMMERCIAL BANKS AND MECHANISMS FOR THEIR EFFICIENT MANAGEMENT

Abstract: This thesis provides a scientific analysis of the formation of non-performing assets in the practice of commercial banks in Uzbekistan, identifying their underlying causes and directions for effective management. The study examines 2025 statistical indicators of the national banking system, using "Hamkorbank" as an empirical example, analyzes the dynamics of non-performing loan ratios, and develops strategic approaches to reduce their volume. The author proposes practical measures such as improving credit history evaluation mechanisms, ensuring mandatory integration of credit bureau data, implementing blacklist systems, expanding the activities of collection agencies, and establishing dedicated problem-asset management units within banks.

Keywords: Commercial banks, non-performing assets, credit portfolio, risk management, liquidity, debt monitoring, credit bureau, blacklist system, collateral liquidity, asset quality.

СНИЖЕНИЕ ДОЛИ ПРОБЛЕМНЫХ АКТИВОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМЫ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация: В данной тезисной работе научно раскрыты процессы формирования доли проблемных активов в коммерческих банках Узбекистана, причины их возникновения и направления эффективного управления. На основе статистических данных банковской системы Республики и примера "Hamkorbank" за 2025 год проанализирована динамика доли проблемных кредитов и разработаны предложения по её снижению. Автором выдвинуты практические рекомендации, включающие совершенствование системы оценки кредитной истории, обязательную интеграцию данных кредитного бюро, внедрение механизма "чёрного списка", расширение деятельности коллекторских организаций, а также создание в банках

специализированных подразделений по управлению проблемными активами.

Ключевые слова: Коммерческие банки, проблемные активы, кредитный портфель, риск-менеджмент, ликвидность, мониторинг задолженности, кредитное бюро, чёрный список, ликвидность обеспечения, качество активов.

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi, avvalo, ularning resurs bazasini mustahkamlash, likvidlik darajasini optimal saqlash va daromadlilikni barqaror oshirib borish bilan bevosita bog'liq. Bunday maqsadlarga erishish uchun bank aktivlari va passivlarini ilmiy asoslangan, balanslashgan hamda tizimli tarzda boshqarish muhim hisoblanadi. Amaliyot ko'rsatmoqdaki, aktivlar sifatini nazorat qilish mexanizmlari yetarlicha ishlamas yoki noto'g'ri boshqarilsa, kredit portfelining qaytarilmas qismi ortib, muammoli aktivlar shakllanadi.

Muammoli aktivlar ulushi o'sishi bank likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, foiz va foizsiz daromadlarni qisqartiradi, resurslar qimmatlashuviga va foyda marjasining pasayishiga olib keladi. Bu esa bankning investitsion imkoniyatlarini cheklaydi, yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish jarayonini sekinlashtiradi, mavjud xizmatlar sifatining oshishiga to'sqinlik qiladi.

Shu bois muammoli aktivlarni vaqtida aniqlash, ularni restrukturizatsiya qilish, qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda risk-menejment instrumentlarini kuchaytirish tijorat banklari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Samarali boshqarilgan aktivlar portfeli bank barqarorligining kafolati, likvid resurslar manbai va daromadni oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Muammoli aktivlar, o'z mohiyatiga ko'ra, bankning aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishi jarayonida shakllanadigan, qaytarilishida xavf yuqori bo'lgan yoki foydali likvidlik va daromad olib kelish funksiyasini to'liq bajara olmayotgan aktivlar toifasidir. Shuning uchun, avvalo, "aktiv" tushunchasi va ular bilan bog'liq operatsiyalarni aniq belgilab olish zarur.

Shu ma'noda aktivlar, bank tomonidan moliyalashtirilgan yoki talab huquqi sifatida egalik qilinadigan barcha turdagi kredit, investitsiya va shartnomaviy majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi keng qamrovli iqtisodiy kategoriyadir. Ana shu aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarning samarasiz rejalashtirilishi, risk darajasini noto'g'ri baholash yoki monitoringning yetarli emasligi natijasida qarzdorlikni o'z vaqtida qaytarmaslik, to'lov intizomining buzilishi, ta'minot qiymatining tushib ketishi kabi holatlar yuzaga keladi va natijada ular "muammoli aktivlar" toifasiga o'tadi.

Demak, muammoli aktivlar tabiatini to'g'ri anglash uchun, avvalo, bank aktivlari tarkibi, ularning iqtisodiy mazmuni va risk profilini chuqur tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Iqtisodchi-olim, professor Berdiyarov (2023) tijorat banklari aktivlarining iqtisodiy mazmuni va ularning bank faoliyatidagi ahamiyatini tahlil qilar ekan, aktivlarni bankka tegishli bo'lgan va muayyan qiymatga ega resurslar sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, tijorat banki aktivlari avvalo moddiy shakldagi qimmatliklardan iborat bo'lib, ularga naqd pul mablag'lari, mijozlarga berilgan kreditlar, bank tomonidan egalik qilinadigan binolar, ofis inshootlari hamda texnik-uskunaviy jihozlar kiradi. Mazkur aktivlar bankning asosiy resurs bazasini shakllantirib, daromad keltiruvchi operatsiyalarni amalga oshirish uchun moliyaviy asos vazifasini bajaradi [1].

Muallif, shu bilan birga, aktivlar tarkibida nomoddiy resurslar mavjud qiladigan alohida toifani ham ko'rsatadi. Nomoddiy aktivlar fizik shaklga ega bo'lmasada, bank iqtisodiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi va to'g'ridan-to'g'ri daromad shakllantirishda ishtirok etadi. Ularning tarkibiga intellektual mulk ob'ektlari, litsenziyalar, dasturiy ta'minot, nou-xau texnologiyalari, brend qiymati va reputatsion kapital kabi iqtisodiy samaraga ega manbalar kiradi.



Shunday qilib, professor Berdiyarovning ta'rifidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, tijorat banklari aktivlari - bankning moddiy va nomoddiy resurslar majmuasi bo'lib, ularning har biri bankning barqaror ishlashi, daromadli aktiv operatsiyalarni amalga oshirishi va likvidililigini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Lavrushin O.I. va hammaulliflar (2022) tomonidan berilgan ta'rifda bank aktivlari, bankka tegishli bo'lgan mulk va xuquqlar yig'indisi sifatida yoritiladi. Ushbu aktivlar bankning o'z mablag'lari hamda jalb qilingan resurslar hisobidan shakllanadi va ular tijorat banklarining asosiy foyda keltiruvchi operatsiyalarini amalga oshirishda muhim iqtisodiy baza vazifasini bajaradi. Mualliflar ta'kidlaganidek, aktiv amaliyotlar bankka daromad olib keluvchi operatsiyalar toifasiga kiradi va ular bank balansining aktiv qismida aks ettiriladi [2].

Muammoli aktivlarni samarali boshqarish bo'yicha yondashuv avvalo bankning rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib shakllantirilishi lozim. Chunki har qanday strategiya muayyan vaqt kesimida amalga oshirilishi belgilangan maqsadlar tizimiga tayanadi. Bank faoliyatida ham maqsadlar dinamik xarakterga ega bo'lib, qisqa muddatli va uzoq muddatli strategik ustuvorliklar bilan farqlanadi. Shu asosda muammoli aktivlarni boshqarishni ikki vaqt gorizontida tahlil qilish maqsadga muvofiq: qisqa muddatli (bir yilgacha) va uzoq muddatli (bir yildan yuqori) boshqaruv yo'nalishi.

Qisqa muddatli boshqaruv doirasida asosiy vazifa ikki yo'nalishdan birini amalga oshirishga qaratilgan:

- belgilangan risk doirasida sof foiz daromadini maksimallashtirish;

- yoki aksincha, kutilgan sof foiz daromadiga nisbatan risk darajasini minimallashtirish.

Bu bosqichda likvidlikni saqlash, qarzlar bo'yicha kechiktirilgan to'lovlarni bartaraf etish, restrukturizatsiya va inkassatsiya mexanizmlarini ishga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzoq muddatli strategiyaning asosiy maqsadi esa bank kapitalining bozor qiymatini oshirishdan iborat. Bu esa tijorat bankining barqaror rivojlanishi, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda nazorat organlari tomonidan belgilangan talablarni bosqichma-bosqich va to'liq bajarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Qisqa va uzoq muddatli yo'nalishlarni uyg'un boshqarish, o'z navbatida, muammoli aktivlarning salmog'ini kamaytirish orqali bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va risklarga chidamliligini kuchaytiradi.

Hozirgi vaqtda tijorat banklari uchun ustuvor maqsad faqat yangi kreditlar ajratish emas, balki mavjud kredit portfelining o'z vaqtida qaytirilishini to'liq ta'minlashdan iborat. Chunki qaytarilmagan yoki kechiktirilgan qarzlar bank aktivlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, muammoli kreditlar ulushining ortishiga olib keladi. Muammoli kreditlar hajmining o'sishi esa bankning daromadli faoliyat yuritish imkoniyatini cheklaydi, foiz daromadlarini kamaytiradi va aktivlardan kutilgan iqtisodiy samarani pasaytiradi.

Shu jihatdan, kreditlar bo'yicha to'lov intizomini kuchaytirish, kredit portfelini to'g'ri monitoring qilish va qaytish darajasini oshirish - tijorat banklari barqarorligi va ularning kelgusi rivojlanish strategiyasida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Aks holda, muammoli kreditlar ulushining oshishi bankning istiqbol rejalarini amalga oshirish imkoniyatini qisqartiradi, investitsiya faolligini pasaytiradi va moliyaviy barqarorlikka xavf soladi.

Bank aktivlarining sifati kredit portfelini baholash va tavsiflash orqali aniqlanadi. Bu jarayon asosan amaldagi me'yoriy reglamentlar va nazorat organlari talablariga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Unga muvofiq, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bir qator asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilinib, muayyan toifalarga ajratiladi.

Birinchidan, qarz oluvchining moliyaviy barqarorligi va kreditga layoqatlilik darajasi hisobga olinadi. Mijozning daromad manbalari, ularning barqarorligi, aylanma kapital

holati, qo'shimcha kafolatlar va biznes faoliyatining dinamikasi bank uchun muhim mezon hisoblanadi.

Ikkinchidan, kredit riskining darajasi tahlil qilinadi. Bu yerda qarz oluvchining qarz ta'rixi, qarz yuki, kredit bo'yicha tavakkal ehtimoli va defolt xavfi baholanadi.

Uchinchidan, kreditning ta'minlanganlik darajasi, ya'ni garov qiymati, uning likvidligi va qoplash koeffitsienti inobatga olinadi. Garovning bozorda tez sotila olish imkoni qanchalik yuqori bo'lsa, kreditning risk darajasi shunchalik past baholanadi.

To'rtinchidan, qarzni qaytarish muddati va to'lov kechikish davomiyligi muhim mezon hisoblanadi. Kreditni to'lash muddati 30 kun, 90 kun yoki undan ortiq kechikkan holatlar turlicha toifalanadi va risk darajasi keskin oshgan deb baholanadi.

Mana shu ko'rsatkichlar majmuiga tayanilgan holda banklar kreditlarni standart, substandart, shubhali va umidsiz toifalarga ajratadi. Shu orqali kredit portfelining umumiy sifati aniqlanadi, muammoli kreditlar ulushi hisoblanadi va aktivlar tarkibini yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi 3,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1 iyunga kelib ushbu ko'rsatkich 0,1 foizli punktga pasaygan. Ya'ni, kredit portfeli hajmi ortib borayotgan sharoitda muammoli qarzlar ulushining kamayishi kredit risklarini boshqarishda muayyan ijobiy tendensiya mavjudligini anglatadi [3].

Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan "Hamkorbank" misolida ham mazkur dinamika kuzatish mumkin. 2025 yil 1 iyun holatiga bankning umumiy kredit portfeli 13 112 mlrd so'mni tashkil etgan, shundan 77 mlrd so'm (0,6%) muammoli kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bu raqam bank tomonidan risk-menejment strategiyalari to'g'ri yo'naltirilayotgani, qarzdorlar bilan ishlash, monitoring va restrukturizatsiya mexanizmlarining amalda samara berayotganidan dalolat beradi [4].

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilning 1 iyun holatida milliy bank tizimida muammoli kreditlar ulushi 3,5 foizga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich yil boshidan 0,1 foizli punktga pasaygan bo'lsa-da, miqdor jihatidan 647 mlrd so'mga oshgani qayd etilgan. Mazkur vaziyat paradoksial ko'rinishga ega: muammoli kreditlar hajmi o'sgan, ammo ulush ko'rsatkichi pasaygan. Buning asosiy sababi, tijorat banklari kredit portfelining keskin oshgani, ya'ni 2025 yil boshidan 30,4 trln so'mga ko'paygani bilan izohlanadi [5].

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, respublika miqyosida ham, "Hamkorbank" misolida ham kredit portfeli sifatining yaxshilanishi kuzatilmoqda. Muammoli kreditlar ulushining pasayishi banklarda risklarni to'g'ri baholash, monitoringni kuchaytirish va restrukturizatsiya siyosatini samarali amalga oshirish natijasi bo'lib, kelgusi davrda ham kredit portfelining barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida muammoli aktivlarning yuzaga kelishi bir vaqtning o'zida ham ichki, ham tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omillar bankning o'z faoliyati, kredit jarayonini tashkil etish darajasi va ichki nazorat mexanizmlari bilan bog'liq bo'lsa, tashqi omillar esa bankka bevosita bog'liq bo'lmagan makroiqtisodiy va kon'yunktura o'zgarishlari ta'sirini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Berdiyarov B.T. Tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyati: muammo va yechimlar. - Toshkent: 2023. - 165 b.
2. Lavrushin O.I., Volovik A.A., Maslennikov Yu.S. Bankovskoe delo. - Moskva: KnoRus, 2022. - 536 s.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi tahlili bo'yicha kvartal hisoboti. - Toshkent, 2025. - 46 b.
4. "Hamkorbank" ATB. Moliyaviy hisobot va kredit portfeli tahlili. - Toshkent, 2025. - 37 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistical Bulletin. - Tashkent, 2025. - 122 p.